



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Qutayba ibn Muslimning Xuroson va Movarounnahr hududlariga harbiy yurushlari tarixidan

Abdulhamidova Mohichexra Oltinbek qizi

Kokand universiteti, Andijon filiali IT va ijtimoiy-gumanitar fakulteti

Tarix yoʻnalishi talabasi

E-mail:abdulhamidovamohichexra@gmail.com

Yunusova Buxajal Alimovna

Qoʻqon universiteti Andijon filiali “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta oʻqituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada arablarning yirik sarkardasi Qutayba ibn Muslimning hayoti va harbiy faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda uning Xuroson noibi sifatida tayinlanishi, Xuroson va Movarounnahr hududlarini bosib olish jarayoni hamda bu hududlarda olib borgan siyosati chuqur oʻrganiladi. Shuningdek, Qutayba ibn Muslim faoliyatining Markaziy Osiyo tarixiga uzoq muddatli taʼsiri, islom sivilizatsiyasining mintaqada keng yoyilishiga qoʻshgan hissasi va bu jarayonning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: Noib, mintaqa, siyosati, islom, strategiya, sivilizatsiya.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ жизни и военной деятельности одного из крупнейших арабских полководцев — Кутайбы ибн Муслима. Рассматриваются его назначение наместником Хорасана, процесс завоевания Хорасана и Мавераннахра, а также политика, проводимая им на этих территориях. Кроме того, исследуется долгосрочное влияние деятельности Кутайбы ибн Муслима на историю Средней Азии, его вклад в распространение исламской цивилизации в регионе и социально-политические последствия данного процесса.

Ключевые слова: наместник, регион, политика, ислам, стратегия, цивилизация.

Annotation: This article provides a scholarly analysis of the life and military activities of one of the most prominent Arab commanders — Qutayba ibn Muslim. It examines his appointment as the governor of Khorasan, the process of conquering Khorasan and Transoxiana, as well as the political strategies he implemented in these territories. Furthermore, the article explores the long-term influence of Qutayba ibn Muslim’s activities on the history of Central Asia, his contribution to the spread of Islamic civilization in the region, and the socio-political consequences of this process.

Keywords: governor, region, policy, Islam, strategy, civilization.

Arablarning Oʻrta Osiyoga kirib kelishi nisbatan uzoq tarixiy davrni oʻz ichiga olgan boʻlib, uning oqibatlarini avvalgi chetdan kelgan xalqlardan ancha muhim ahamiyat kasb etdi. Arab istilosi nafaqat yangi etnik qatlamni, balki yangi diniy va madaniy tizimni ham joriy etdi. Shu tariqa Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida yangi davr boshlangan desak adashmagan boʻlamiz. Arablarning hududga kirib kelishi avvalo Xuroson va Movarounnahrning strategik ahamiyatiga bogʻliq boʻlib, u yerning iqtisodiy, madaniy va siyosiy imkoniyatlarini boshqarish imkonini yaratdi. Arablar Markaziy Osiyoga yangi din islomni olib keldilar[2.233-235].





Islom dini yoyilishida arab sarkardasi Qutayba ibn Muslimning o'rnini katta. Tarixchi olim Muhammad Narshaxiyning yozishicha, Qutayba ibn Muslim hijriy 42-milodiy 661-yil Shomning al-Bakholiy degan joyida tavallud topgan. Qutayba arab qabilasidan ekanligi ta'kidlanadi. Qutayba ibn Muslim o'z qavmida sharafiga ega adib olim bo'lgan. U yuksak axloq sohibi, qo'l ostidagilarga adolatli va haqiqatgo'y bo'lgan.

Qutayba ibn Muslimning Xuroson va Movarounnahrda yurishlari islom tarixida muhim o'rin egallagan harbiy ekspansiyalar sarasiga kiradi [1.95]. U 704-705- yillarda Ummaviylar xalifasi Abdulmalik tomonidan Xuroson viloyatiga noib etib tayinlangan va 715- yilgacha o'sha lavozimda qolgan. Qutayba Xurosonda mustahkam hokim sifatida tayinlangach dastlab, Xuroson va Toxariston hududlarini arablarga bo'ysudurishga kirishadi. U Xurosonda asosiy harbiy resurslarni to'plab Movarounnahr bilan chegaradosh hududlarga yurishlar uchun tayyorgarlik ko'radi. So'ngra u 706-715- yillar orasida Movarounnahrning katta qismini Romiton va Poykentni bosib, 707- yil Varaxsha, Vardona va Buxoroni 709-yil, Shuman, Kesh va Nasafni 710-yil, Xorazm va Samarqandni 712-yil, Shosh, Farg'ona va Qoshg'arni 713-715-yillarga arab xalifaligiga tobe etgan [3.312-318].

Qutayba ibn Muslimning harbiy yurishlarga Buxoro va Samarqanddagi sug'diylar va turkiylar ayniqsa, Vardona mulkining hukumdori Vardonxudot qattiq qarshilik ko'rsatgan. Qutayba ibn Muslim tomonidan mahalliy aholini islom diniga kiritish dastlab qattiq qarshilikka uchragan. U to'rtinchi marta Buxoroni olgach, arablar Buxoroliklar bilan birga turib, ularning xatti-harakatlaridan xabaror bo'lib tursalar Buxoroliklar zaruratdan musulmon bo'ladi degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarining yarimini arablarga berishga undab buyruq chiqardi. Qutayba ibn Muslim shu yo'l bilan Buxoro va boshqa shaharlarda musulmonchilikni o'rnatdi. Movarounnahrda dastlabki Jome' Masjidini Buxoroda qurdiradi (712-713). Qutayba ibn Muslim boshqa shaharlarda ham masjidlar qurdirib, bu islohotlarga qarshi chiqqanlarga nisbatan ayovsiz kurashlar olib bordi. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida keltirilishicha: «Qutayba Xorazim xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi.» [4.145-150]

Qutayba ibn Muslimning O'rta Osiyoni fath qilishi, bu hududda islomni asosiy din sifatida yoyganligi jihatidan uning shuhratini abadiylashtirdi. Qutayba davrida Shoshning shimoliy qismlarini, o'sha davrda Xitoy imperiyasiga qarashli Qashg'arning janubiy-sharqiy qismlarini egalladi. Qutaybaning g'alabalari va to'plagan o'ljalari arablarga ko'p foyda keltirgan bo'lsa-da, askarlari unga chin dildan itoat qilishmadi. Qutayba 715-yilda yangi xalifa Sulaymonga qarshi urish qilmoqchi bo'lganida hech kim qo'llab quvvatlamadi va u o'ldirildi. Qutaybaning vafotidan keyin ham arablarning yurishi davom etdi.





Xulosa qilib aytganda, Qutayba ibn Muslimning Oʻrta Osiyoga kelishi nafaqat harbiy, balkiy siyosiy va madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega boʻlib, u bu hududning tarixiy taqdirini butunlay oʻzgartirgan shaxs sifatida tarixda muhurlanib qolgan. Uning yurishlari natijasida Movarounnahrning katta qismlari arab xalifaligiga boʻysundirildi, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda islom dini mustahkam oʻrnashdi, mahalliy aholi orasida yangi ijtimoiy va maʼnaviy tuzum shakllandi. Shuningdek, Qutayba davrida oʻrnatilgan siyosiy tartib va madaniy meros bugungi kunda ham tarixiy ahamiyatga ega. U nafaqat hududni boshqarish, balki diniy va ijtimoiy integratsiya jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Qutayba faoliyati natijasida shakllangan madaniy va dini meros, jumladan masjidlar, ilmiy maktablar va diniy tashkilotlar, keyingi asrlarda ham Oʻrta Osiyo xalqlari tarixida chuqur iz qoldirdi. Shu bois, Qutayba ibn Muslimning yurishlari va faoliyati hudud tarixining yangi bosqichini belgiladi va u tarixiy shaxs sifatida abadiylashdi. Xullas, uning yurishlari natijasida shakllangan madaniy meros bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad ibn Jaʼfar an-Narshaxiy. Tarix Buxoro. Toshkent: Kamalak nashriyoti, 1991.
2. Oʻzbekiston tarixi (Qadimgi davr va oʻrta asrlar). – Toshkent: Ўзбекистон, 2017.
3. Oʻzbekiston tarixi. 1-жилд. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – Toshkent: Sharq, 2001.

